

“TASDIQLAYMAN”

Sirdaryo viloyati statistika
boshqarmasi boshlig'i

U. Elmuratov



Narx statistikasi bo'limi boshlig'ining lovozim YO'RIQNOMASI

I.Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi Narx statistikasi bo'limining asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.
2. Bo'lim o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-114-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan va Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi (keyingi o'rinlarda Statistika boshqarmasi deb ataladi) tarkibiy bo'limasi hisoblanadi.
3. Bo'lim o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonuni va boshqa qonunlarga, Oliy Majlisning normativ qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi to'g'risida”gi nizomga, Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi to'g'risidagi nizomiga, mazkur nizomga, shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.
4. Bo'lim narxlar statistikasi bo'yicha faoliyatini tarmog bo'limlari va tuman (shahar) statistika bo'limlari bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.
5. Bo'lim o'z faoliyatini Statistika boshqarmasi rahbarligida amalga oshiradi.
Bo'lim o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha Statistika boshqarmasiboshlig'iga bo'ysunadi.

II.Bo'lim boshlig'ining vazifalari va funksiyalari

Bo'limga bevosita rahbarlikni amalga oshiradi, bo'limga yuklangan vazifa va funksiyalarning lozim darajada bajarilishi, ijro va mehnat intizomi holati uchun shaxsan javob beradi;

Bo'limning ish rejasini ishlab chiqadi va boshqarma boshlig'iga tasdiqlash uchun kiritadi;

Bo'lim xodimlari o'rtasida yozifalarni taqsimlaydi;

Statistika boshqarmasi boshlig'i va uning o'rinbosarlarining topshiriqlariga muvofiq tahliliy va umumlashtiruvchi materiallarni tayyorlaydi, qo'yilgan vazifalarni yanada samarali amalga oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishini ta'minlaydi;

narxlar statistikasi bo'yicha uslubiy hujjatlarni qo'llashda bo'limlar va hududlar mutaxassislariga maslahat va uslubiy yordam ko'rsatadi;

Bo'lim ishining samaradorligi darajasini oshirish va kadrlar bilan to'ldirish choralari ko'radi;

Bo'lim xodimlari bilan yuklatilgan vazifalar, kiruvchi hujjatlarni nazorat qilish va tajriba almashish masalalari yuzasidan yo'rignoma berish bo'yicha yig'ilishlar o'tkazadi;

Ish yuritishni olib borish, topshiriqlarni o'z vaqtida ijro etilishini qat'iy nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil qiladi, xodimlar tomonidan xizmat hujjatlari bilan ishlash va ularni saqlash bo'yicha ishlarning belgilangan tartibiga amal qilinishini ta'minlaydi.

Bo'lim bosh mutaxassisi yo'qligida uning vazifalarini bajaradi

III. Bo'lim boshlig'ining huquq va majburiyatlari

Bo'lim boshlig'i:

Narx statistikasi soxasida kuzatuvlarni tashkil etish va uslubiyatini takomillashtirish masalalari bo'yicha viloyat statistika boshqarmasi rahbarligida hamda Agentlikning tarkibiy bo'limlariga takliflar kiritish;

Bo'limga yuklatilgan funksional vazifalarni bajarilishi uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni, viloyat boshqarmasining tarkibiy bo'limlaridan, shuningdek hududiy statistik bo'limlaridan olish;

Bo'lim vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha agentlik boshqarmalari va b'olimlari, viloyat boshqarma tarkibiy b'olimlari hamda hududiy statistika bo'limlari bilan hamkorlik qilish;

Vazirliklar, idoralar, loyixalarni amalga oshiruvchi guruhlar hamda boshqa davlat tashkilotlaridan bo'lo'm vakolatiga kiruvchi statistik ishlarini olib borish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlari, shuningdek ularga ilova etiladigan tushuntirishlarni so'rash va olish;

Narx statistikasi uslubiyati va davlat statistika kuzatuvlarini tashkil etishga aloqador bo'lgan masalalar bo'yicha ahborot-tushunt ishlarini olib boorish.

IV. Bo'lim boshlig'i javobgarligi

Bo'lim boshlig'i:


Amaldagi qonunchilik, Statistika agentligi nizomiga, viloyat boshqarma nizomiga, ichki mexnat tartibi qoidalari, rahbariyat buyruq va topshiriqlariga.

Ushbu lavozim yo'rignomasida keltirilgan vazifalarni sifatli va o'z muddatida bajarilishiga.

O 'zbekiston Respublikasi Prezidenti va vazirlar maxkamasi Agentlik tomonidan belgilangan eng muhim ustivor vazifalar va zamonaviy talablardan kelib chiqib, shuningdek O'zbekiston Respublikasi xuzuridagi statistika agentligi to'g'risidagi qonun va qarorlar va Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi to'g'risidagi nizomida belgilangan vazifalar, funksiyalar bajarilishini; va davlat va tijorat sirlariga ega statistik ma'lumotlarning saqlanishini ta' minlaydi;

Hodim bo'lim nizomida, ushbu lavozim yo'riqnomasida o'ziga yuklatilgan vazifalar, funksiyalari va majburiyatlariga rioya etish.

Mazkur lavozim yo'riqnomasi bilan tanishdim va uni bajarish majburiyatini o'z zimmaniga olaman:

 bekmurotovich Bekmurotovich 24.05.2024.
(imzo) (ism, otasining ismi va familiyasi) (sana)